“NASOYIM UL-MUHABBAT”NING 2001-YILGI NASHRI BILAN “ASARLAR” DAGI MATNINING QIYOSIY TAHLILI

Qudratova Kamola Hikmat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
E.mail: hikmatovnakamola@gmail.com
+998 91 406 12 24
https://doi.org/10.5281/zenodo.22810488

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarining 20 jildlik “Mukammal asarlar to’plami” hamda 15 jildlik “Asarlar” to’plamlariga kiritilgan nashrlari o’zaro qiyosiy tahlili.
Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, mashoyix, zikr, odob, avliyo, tasavvuf, matn.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ текстологических особенностей изданий произведения Алишера Навои «Насойим ул-мухаббат», представленных в 20-томном собрании сочинений «Мукаммал асарлар тўплами» («Полное собрание сочинений») и 15-томном собрании сочинений «Асарлар» («Сочинения»). В ходе исследования сопоставляются тексты произведения, включённые в указанные издания, а также выявляются особенности их публикации и текстуальной передачи.
Ключевые слова: Алишер Навои, машойих, зикр, адаб, авлия, суфизм, текст.

Annotation: The article presents a comparative textual analysis of the editions of Alisher Navoi’s work *Nasoyim ul-Muhabbat* included in the 20-volume *Mukammal Asarlar To‘plami* (*Complete Works*) and the 15-volume *Asarlar* (*Works*). The study compares the texts of the work presented in these editions and identifies the specific features of their publication and textual transmission.
Keywords: Alisher Navoi, mashoyikh, dhikr, adab, awliya, Sufism, text.

“Nasoyim ul-muhabbat” ning 10-fiqrasi Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobit imomi A’zamga bag‘ishlangan. Navoiy hanafiylik mazhabining asoschisi, butun musulmon olamida ma’lum-u mashhur mislsiz alloma, muhaddis, avliyoulloh Imomi A’zam q.t.s hayotidan g‘oyatda ta’sirchan lavhalar kerltiradilar. Bu rivoyatlarning aksariyati payg‘ambar (s.a.v.) va Imomi A’zam munosabatlariga, Rasuli Akram(s.a.v.) ning Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobitga yuksak hurmat va ehtiromlari, ishonchlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha rivoyatlardan birini bu o‘rinda keltiramiz:

“Derlarki, avoyildakim, yuz qiblayi haqiqiyg‘a kelturdi va xalqdin yuz evurdi va pashmina kiyib, riyozatqa mashg‘ul bo‘ldi, bir necha voqeada ko‘rdikim, Mustafo(s.a.v.) muborak so‘ngaklarin lahadda yig‘ib, ba’zini ba’zidin ayiradur. Bu voqeaning haybatidin uyg‘ondi va Ibn Sirinning azhobidin biriga aytdi. Ul mundoq tabir qildikim, sen Rasullullohning ilmi va sunnati

hifsida biyik darajaga yetkaysan, andoqki ahodisda mutasarrif bo‘lg‘aysen va sahihni saqimdan ayirg‘aysen”[1].

“Nasoyim ul-muhabbat” dan ko‘chirilgan iqtibos quyidagi masalalar xususida aniq va tiniq ma’lumot berishi bilan e’tiborni tortadi:

1. Hanafiylik mazhabi asoschisi Imomi A’zam riyozatga mashg‘ul bo‘lgan, haq yo‘liga kirgan dastlabki davr haqida aniq ma’lumot beradi;
2. Xilvatda Allohga sidqidildan ibodat qilib, riyozat tortgan Nu’mon bin Sobitning yuksak ijtimoiy-ma’naviy maqomga erishganligini namoyon qiladi;
3. Tush insonga xos hodisa bo‘lib, ruhiy jarayon ta’sirida yuz berishi, uning inson ruhiyatini, kelajagini o‘rganishida muhim vosita ekanligi dalillaydi;
4. Imomi A’zamning Payg‘ambar(s.a.v.) ishorasi bilan ilohiyot va tasavvuf yo‘liga kirgan buyuk muhaddis bo‘lib yetishgan alloma ekanligini mantiqan asoslaydi;
5. Tasavvuf adabiyotida tush va uni ta’birlashga jiddiy e’tibor berilganligi, tushdan ramz sifatida keng istifoda etilganligini ko‘rsatadi.

So‘zni noto‘g‘ri o‘qish natijasida tush tasviriga yo‘naltirilgan “bir kecha voqeada ko‘rdikim” ifodasi 2001-yilgi nashrda “bir necha voqeada ko‘rdikim” tarzida berilgan. Bir harfni noto‘g‘ri o‘qish orqasida kelib chiqqan bu xato “To‘la asarlar to‘plami”ning 10-jildida tuzatilgan.[2]

Tasavvufda Alloh nomini ko‘ngilda yod etish g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Zikr talqini Qur’onning 2(152, 194), 4(104), 7(205), 13(28), 17(111), 18(23), 33(41), 75(25), 87(1,15) suralari zaminida shakllangan bo‘lib, “ Nasoyim ul-muhabbat” ning Ahmad Harbga bag‘ishlangan 15-fiqrasi nashridan tushirib qoldirilgan bir so‘z ustida bahs yuritishdan oldin qayd etilgan oyati karimalardan birini nazardan o‘tkazaylik: “ Va zakara isma robbihi va solla-va (tili qalbi bilan) Robbisining ismini zikr qilsa…” (A’la surasi, 15-oyat). Zikr mohiyatini Alisher Navoiy quyidagicha sharhlaydilar: “Zikr ko‘ngil bila Haq yodi ishtig‘olidur vat il bila dog‘i hamul takallum maqoli.”[3] A’rof surasining 205-oyati karimasidan o‘qiymiz: “Rabbingizni ichingizda tazarru va qo‘rqinch bilan hamda gapirganda ovozni ko‘tarmasdan erta-yu kech zikr (yod) eting! G‘ofillardan bo‘lmang!” [4] Oyati karimada Alloh taoloni doimo zikr qilib yurish ta’kidlangan. Hamma narsani eshitib turuvchi parvardigorni baland ovozda zikr qilish shart emasligi, eng muhimi zikrni doimiy, muttasil bo‘lishi va chin ko‘ngildan aytilishiga asosiy e’tibor qaratilgan. Zikrning 2 xil (jahriya, xufiya) tarzida ado etilishiga ishora qilingan. Navoiy asarlarida qalbiy zikrga ko‘proq rag‘bat ko‘rsatiladi: “Va ba’zi tilga ul amirdin ma’zulluq debdurlar va ko‘ngilga mudovamat va mashg‘ulluq”[5].

“Nasoyim ul-muhabbat” ning 15-fiqrasida yozilishicha, Shayx Ahmad Harb qalbi shuuriga zikr shunday qattiq singanki, u zikrni yuqorida matni keltirilgan Qur’oni karim “A’rof” surasining 205-oyati karimasida buyurilganidek amalga oshirgan.

---

[1] Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 17-jild. –Toshkent: Fan. 2001.- B: 31.
[2] Navoiy A. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriot matbaa birlshamasi. 2013.- B: 10. Bundan keyin shu nashrga murojaat qilinganda sahifani qavs ichida ko’rsatish bilan cheklanamiz.
[3] Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Qiyosiy matn. Moskva-Leningrad, 1948.- B:176.
[4] Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri/Matn/ Tarjima va tafsir muallifi : Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-Standart. 2021 – B:176-177.
[5] Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri/Matn/ Tarjima va tafsir muallifi : Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-Standart. 2021 – B:84.

“Nasoyim ul-muhabbat” dan o‘qiymiz: “ Tengri zikri anga andoq g‘olib erdiki, Muzayyin irni tukini olurda og‘zida Tengri oti erdi. Muzayyin dedikim, bir zamon irningni tebratma! Ul dedikim, sen o‘z ishingga mashg‘ul bo‘lki, bizning bu ishdin farog‘atimiz yo‘qdur, irni necha yerda kesildi”[6]. “ Nasoyim ul-muhabbat” ning “Bu toifaning a’molu af’ol va muomilotu riyozotidin ba’zini zikr qilmoq” sarlavhasi ostidagi faslida avliyoullohning halol luqma uchun turli kasblar bilan shug‘ullanganliklari zikr qilingan. Shu faslda shayx Abulhasan va Shayx Bannonning hammollik kasbi bilan mashg‘ul ekanliklari ta’kidlanadi: “Va Shayx Abulhasan Muzayyin va Shayx Bannon Hammol va Shayx Abulhasan – najjor” [7]

Ko‘chirilgan iqtibosda “Muzayyin” Shayx Abulhasan nomining bir qismi sifatida qayd qilingan. O‘zbekiston fanlar akamediyasining a’zosi, filologiya fanlari doktori, E. I. Fozilov tahriri ostida chop etilgan (1983-yilda) 4 jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ning 2-jildida “Muzayyin “kalimasiga izoh berilar ekan, u kasb nomi sifatida qayd qilinadi va “ Nasoyim ul-muhabbat” dan aynan o‘sha misol keltiriladi: Muzayyin ziynat beruvchi, bezovchi. “Va Shayx Abulhasan Muzayyin.” “Nasoyim ul-muhabbat XV-157”[8] Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atini tuzgan olimlar “muzayyin” so‘zini izohlashda misolni “Nasoyim ul-muhabbat” ning 1968 yilgi nashridan olganlar: “Va shayx Abulhasan muzayin va Shayx Banon – Hammol va shayx Abulhasan-najjor”[9]. Muzayyin so‘zidagi “yoy”ning tashdid o‘qilmasligi oqibatida joriy alifboda so‘zni bitishda bir harfning tushirib qoldirilganligi inobatga olinmaganda, Alisher Navoiy asarlari 15 tomligining 15-jildida matn to‘g‘ri yozilgan. “Mukammal asarlar to‘plami”ning 17-jildida esa turdosh va atoqli ot farqlanmagan. Turdosh ot atoqli ot tarzida yozilgan. Natijada jiddiy, chalkash xatoga yo‘l qo‘yilgan. “Nasoyim ul-muhabbat” ning 17-jildidagi matnini o‘qigan o‘quvchi Shayx Abulhasan muzayyinlik kasbi bilan emas, Shayx Banon kabi hammollik bilan shug‘ullangan ekan degan noto‘g‘ri ma’no kelib chiqadi. Ahmad Harbga bag‘ishlangan 15-maqoladan ko‘chirilgan iqtibosda muzayyin tomonidan Shayx Ahmad Harb nazarda tutib aytilgan, “Sen” so‘zi ham matndan tushirib qoldirilgan. Turdosh va atoqli otni farqlamaslik, turdosh otni atoqli ot sifatida va aksincha atoqli otni turdosh tarzida yozish hodisasi Abulasvad Ro‘iyga bag‘ishlangan 18-fiqrada ham kuzatiladi. “Nasoyim ul-muhabbat”ning 18-maqolasi quyidagi jumla bilan ochiladi: “Bodiyada bir kun o‘z ahlig‘a aytdikim, bidrud bo‘lki, men bordim”(35). Tazkiradan keltirilgan matndagi “bo‘lk” kalimasi lug‘atlarda uchramaydi. “Mumtoz matnlarimiz nashrlarida bunday so‘zlar oz emas… Lug‘atda yo‘q yangi so‘zlarning xavfi shundaki ular matn mazmunini mutlaqo buzadi: mutaxassislar boshini qotiradi, oddiy o‘quvchiku hech narsa tushunmaydi”[10], – deb yozadi ustoz olim V. Rahmonov. Fikrimizcha, “buluk” so‘zini noto‘g‘ri o‘qish oqibatida yuqoridagi xato kelib chiqqan. “Buluk” so‘ziga “Navoiy asarlari lug‘atida quyidagicha izoh berilgan: “Viloyat, shahar atrofi, tuman, katta qishloq.”[11]

Chindan ham Alisher Navoiy asarlarida “buluk” xuddi lug‘atda qayd qilinganidek ma’noda ishlatilgan. Fikrimiz isboti uchun buyuk mutafakkirning vaqf yerlari haqida mulohaza

[6] Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 17-jild. –Toshkent: Fan. 2001.- B: 34.
[7] Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 17-jild. –Toshkent: Fan. 2001.- B: 15.

[8] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. To’rt tomlik, 2-tom.- Toshkent: Fan, 1983.- B: 339.
[9] Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 17-jild. –Toshkent: Fan. 2001.- B: 68.
[10] Rahmon V. Mumtoz so’z sehri. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2015.- B: 266.
[11] Navoiy asarlari lug’ati.-Toshkent: Adabiyot va san’at, 1973.-b.135.

yuritilgan. ”Vaqfiya” asaridan bir misol keltiramiz: “Va Bodg‘is viloyatida Tudagi korizi tamom va kamol bila va Gumburoq bulukida Paragig korizi va mukammal va Hirotrud viloyatida Gul kenti jami bog‘ot va daraxton va saroy bog‘ga soyir arozisi bila”![12] Alisher Navoiy 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning 14-jildida berilgan “Vaqfiya” asarining “Muqaddima” qismi sharqshunos olim I.Shamsi Muhammedov, asosiy qismi esa izohlar bilan O‘zbekiston Qahramoni, professor Suyima G‘aniyeva tomonidan nashrga tayyorlangan. Yuqorida “Vaqfiya”dan ko‘chirilgan iqtibosda olti o‘rinda atoqli otlar qo‘llanilgan bo‘lib, har bir joy va ekinzor nomi bexato, bosh harf bilan yozilgan. “Nasoyim ul-muhabbat” ning 18-fiqrasidan ko‘chirilgan iqtibosda esa bor-yo‘g‘i bir o‘rinda atoqli ot nomi keltirilgan bo‘lsa-da, bosh harf bilan emas, kichik harf bilan yozilgan. “Buluk” so‘zining “bo‘lk” tarzida noto‘g‘ri o‘qilishi qishloq nomining ham noto‘g‘ri o‘qilib, noto‘g‘ri yozilishiga, atoqli otni turdosh tarzida qayd qilinishiga olib kelgan. Shayx Abulasad Ro‘iy q.s. nazarda tutgan joy, makon, shahar atrofi, tuman yoki katta qishloq nomi ham ikki (20 jildlik MAT hamda 10 jildlik To‘la asarlar to‘plami) mo‘tabar nashrda ikki xil yozilgan. Yuqorida “Nasoyim ul-muhaabbat” 18-maqolasidan keltirilgan iqtibosda kuzatilganidek, u mukammal asarlar to‘plamining 17-jildida “birnud” tarzida yozilgan bo‘lsa, To‘la asarlar to‘plamining 10-jildida “padrud” tarzida bitilgan (108). Har ikkala so‘z ham mavjud lug‘atlarda yo‘q. Shunday ekan, “Nasoyim ul-muhabbat” ning O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti xazinasida 857 va 5420-raqamlari ostida saqlanayotgan qo‘lyozma manbalarini sinchiklab o‘qish natijasidagina muammoga oydinlik kiritish mumkin. “Nasoyim ul-muhabbat” dagi 18-fiqra 770 shayxga bag‘ishlangan maqolalar orasida eng ixchamlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy Abulasvad Ro‘iyni yuqorida eslatilgan qishloqqa borishini zikr qilar ekanlar, uning g‘oyat ulug‘ maqomga erishgan karomatli shayx ekanligini o‘quvchiga yetkazishni nazarda tutganlar. Abulasvad Ro‘iy q.s. o‘sha qishloqqa borganida qiz qarindoshi shayx tahorat oladigan idishni sut bilan to‘ldirib qo‘yadi. Tahorat vaqti avliyoning oftobasidan odatdagidek suv emas sut quyiladi. Abulasvad Ro‘iy q.s. qizaloqqa tanbeh beradi: “Dedikim, anga sutdin suv muhimroqdir” (35). Safardan qaytgan shayx tahorat idishini sutdan xoli qilib, suv bilan to‘ldirib qo‘yadi. Ammo qanchalik suv bilan to‘ldirmasin, shayxning tahorat idishida suv sutga aylangan. Qachon tahorat olmoqchi bo‘lsa, oftobadan suv emas, sut quyilgan. Va qachon och va suvsiz qolsa, uning ehtiyoji ochlik va sut bilan qondirilgan.

O‘tmishda yashagan mashoyixlar nomiga qo‘shiladigan qo‘shimchalar “nisba” deb ataladi. “Farhangi zaboni tojiki” lug‘atining ikkinchi jildida unvon arabcha so‘z bo‘lib, nom, nishon, adres, sarlavha, debocha, nishona, namuna tarzida talqin etiladi.[13] “Nasoyim ul-muhabbat” ning 25-fiqrasi mashhur so‘fiy Ibrohim Adhamga bag‘ishlangan. “Ibrohim Adham q.t.r.” yonlama sarlavhasi ostidagi dastlabki jumlalardan o‘qiymiz: “Avvalg‘i tabaqadindur. Kuniyati Abu Is’hoq va oti va nasabi Ibrohim Adham binni Sulaymon binni Mansur al Balxiy (38). Ajratib ko‘rsatilgan so‘z 1968-yilgi nashrda hamda “To‘la asarlar to‘plami”ning 10-jildida “nisbati” tarzida berilgan. “Nisbati” kalimasi ko‘chirilgan iqtibos mazmuniga mos tushmaydi. “Nisba” kalimasining “Farhangi zaboni tojiki” da talqin qilingan ba’zi ma’no qirralari matnga

[12] Navoiy. A. Vaqfiya.- Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 14-jild.-Toshkent: Fan, 1998.-B. 267.
[13] Farhangi zaboni tojiki. Iborat az du jild. Jildi 2. Moskva: nashriyoti Sovetskaya ensiklopediya, 1969. – str. 392. Umumiy sahifasi 952 sah.

mosday taassurot qoldiradi. Ammo matn mazmuniga to‘la muvofiq kelmaydi. Shuning uchun 2001-yilgi nashrda berilgan “nasabi” so‘zining matnda saqlangani ma’qul.

25-fiqradan Ibrohim Adhamning tavbasi haqida o‘qiymiz: “Bir kun ovga boradur erdi. Hotife nido qildik, ey Ibrohim, sani bu ish uchun yaratmaydurlar. Bu so‘zdin anga ogohlig‘ yuzlandi va mulk tarkin qilib, bu toifa tarkin ixtiyor qildi” (38). Ajratib ko‘rsatilgan so‘z “Nasoyim ul-muhabbat”ning “To‘la asarlar to‘plami”dagi nashrida “yaratmabdurlar” tarzida berilgan. Masalaga tarixiy va hozirgi zamon til ilmi, so‘zning jarangi va lazzati mohiyatidan kelib chiqib qaraganda kalimaning keyingi nashridagi ifodasi maqsadga muvofiq.

Alisher Navoiy tazkirasining 28-fiqrasida zikr qilinishicha, shayx Ibrohim Sitanbah Hiraviy Ibrohim Adham suhbatig‘a yetadi. Ibrohim Adham avval uni xalqdan ajralishga, yakka-yolg‘iz yashashga – tajridga targ‘ib qiladi. Keyin esa biror kasb bilan shug‘ullanishga da’vat qiladi. Shayx binni Sitanbah Hiraviy Ibrohim Adham ko‘rsatmasiga ko‘ra, halol kasb bilan shug‘ullanib, o‘z peshana teri bilan topgan-tutganini muhtojlarga sadaqa qilgan. Keyin esa Ibrohim Adham Ibrohim Sitanbah Hiraviyga kasbni tark qilishni, Allohga tavakkul qilib yashashni buyuradi. “Nasoyim ul-muhabbat” dan o‘qiymiz: “So‘ngra dedikim, kasbni tark qil va tavakkulingni Tengriga durust et, to so‘ngra sidqu yaqin hosil bo‘lg‘ay”(40). Ostiga chizib ko‘rsatilgan so‘z “To‘la asarlar to‘plami”da “sanga” so‘zi bilan almashtirilgan (114). “Nasoyim ul-muhabbat”ning 28-fiqrasida ko‘chirilgan iqtibos “so‘ngra” so‘zi bilan boshlangan, shuning uchun shu kalimaning keyingi takrori matn mazmuniga mos kelmaydi. “Sanga” kalimasi esa har tomonlama matn mazmuniga uyg‘un keladi.

Ibrohim Adham ko‘rsatmalariga qat’iy amal qilgan Ibrohim Sitanbah Hiraviy sidqu tavakkulda yuksak maqomga erishadi. Bir necha marta tavakkul qadami bilan haj ibodatini amalga oshiradi. Alloh unga shunchalik katta qalb, sabru bardosh beradiki, o‘zi oylab, yillab och-nahor yurib, qo‘lidagi borini muhtojlarga beradi. “Nasoyim ul-muhabbat”dan o‘qiymiz: “Debdurkim, necha kunlar och qolur erdim, bozordan o‘tsam erdi, el bir-biriga aytishurlar erdikim, bu ul kishidurkim, har kun muncha va ancha mustahiqlarga nafaqa qilur edi”(40). Alisher Navoiyning beqiyos iste’dodi tabiiy ravishda shayxlar hayotiga doir voqealarni betakror badiiy lavhalarga ifodalash olib kelgan. O‘z nafsini riyozat bilan mahv qilib, och-nahor holatda yashab, halol mehnati bilan topgan ne’matlarini ko‘plab beva-bechora va kambag‘allarning og‘ziga tutgan Ibrohim Sitanbah shaxsiyati tasvirida tabiiy ravishda quyilib, oq qog‘oz bag‘riga singgan tazmini muzdavaj go‘zalligi buyuk Navoiy satrlarga jon va ruh bag‘ishlagan. “Muncha” va “ancha” kalimalari yagona o‘rinda yuzlashib, shayx Ibrohim Sitanbah tomonidan qilingan xayr-u ehsonning cheku chegara bilmasligini, Alloh bu bandasiga shunchalik ulug‘ qalb, bag‘rikenglik, qo‘li ochiqlik, ko‘zi va ko‘ngli to‘qlik ato qilganligini sharhlashga xizmat qiladi. Buyuk mutafakkir tarkibi ohangdosh va o‘zaro raviydosh bo‘lgan kalimalarni (ancha va muncha) yonma-yon qo‘llash bilan ulkan ma’niy-axloqiy g‘oyani mahorat bilan ifodalashga erishgan. Shayx Ibrohim Sitanbah yaratgan falsafiy-tasavvufiy ta’limotga ko‘ra kim agar bu hayoti dunyoda eng oliy sharafga erishmoqchi bo‘lsa, yetti narsadan yetti narsani ixtiyor qilmog‘i zarur. Bular quyidagilar:

1. G‘aniylikdan faqirlikni;
2. To‘qlikdan ochlikni;
3. Baland darajadan siniqlikni;
4. Ulug‘likda xorlikni;

5. Manmanlikdan tavozuni;
6. Shodlikdan g‘urbatni;
7. Hayotda o‘limni.

Ibrohim Sitanbah Hiraviy tafakkuri hadya etgan mazkur kashfiyotni mardlik dasturi, komillik dasturi, axloqiy-ma’naviy kamolotning oydin yo‘li sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Haq subhanahu va taologa sidqu sadoqat-tavakkulning mo‘jizaviy qudrati “Nasoyim ul-muhabbat”ning 29-fiqrasida san’atkorona asoslangan. Buyuk Navoiy so‘fiy shayxlar haqidagi tazkirasining 29-maqolasi Ibrohim Sitanbahning muridi Ibrohim Rabotiyga bag‘ishlangan. “Nasoyim ul-muhabbat”ning 29-fiqrasi mohiyatida quyidagi hikoyat turadi. Shayx Ibrohim Sitanbah Hiraviy shogirdi Ibrohim Rabotiy bilan Ka’batullohga safar qiladi. Shayxul mashoyix yo‘lda murididan ehtiyot yuzasidan olgan biror narsasi bor yoki yo‘qligini so‘raydi. Murid “Yo‘q” – deb javob beradi. Bir necha qadam yo‘l bosilgach, Shayx yana hamrohiga murojaat qiladi:”Sen o‘zingni yaxshi ehtiyot qil, ma’luming bo‘lsa tishlag‘ilkim, mening oyog‘im og‘irlik qiladir. Dedi: yo‘q. Yana bir pora yo‘l borg‘andin so‘ngra pir o‘lturdi va aytti: yaxshi ehtiyot qil, senda zodaye to‘madek, yo hech jins ma’lumdin nima borkim, ayog‘im og‘irlik qiladi, bora olmon. Ul ehtiyot qilg‘andin so‘ngra dedikim, bir necha nolayn shiroki bor. Piri aytti, holo xud anga ehtiyojing yo‘qdur. Dedi: Yo‘q. Dedi: tashlakim ma’lumdir” (41).

Ilojsiz qolgan murid pir amrini bajaradi. Biroq bodiya qat’iy “na’layn shirokiy” ga o‘z ta’sirini o‘tkazadi to‘satdan murid kavushining bog‘i uzilib ketadi. Yaroqsiz bog‘ichni oyog‘idagi kiyimdan yechib tashlab, shayxda bu ishda ta’na qilishga chog‘langan shogird ko‘zi oldiga bir yangi bog‘ich turganiga nazari tushadi. Hayratdan uni kavushiga tortib olib Shayxga yechib oladi va yo‘lida davom etadi. Butun Ka’batulloh safari jarayonida uning kavush bog‘ichiga bo‘lgan talabi xuddi shu tartibda qondirila boradi. 29-fiqra rasman Ibrohim Rabotiyga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, aslida unda pir Ibrohim Sitanbahning Allohga sidqu yaqinligi, tavakkulda ulug‘ maqomga erishganlining g‘oyaviy talqini turadi. Pir va muridlik munosabati yordamchi mavzu sifatida hikoyat mag‘zida turgan bosh g‘oyaga uyg‘un tarzda yoritiladi.

Alisher Navoiy talqinicha, tirikchilikning o‘tkinchi mashg‘ulotlariga behad berilish tavakkul noqisligidan darak beradi va rizq uchun ortiqcha urinish ma’naviy zaiflik natijasidir. Buyuk mutafakkir Shayx Ibrohim Sitanbah timsolida Haqning ulug‘ sifatlarini anglasak, tavakkul mohiyati butun ruhi shuuriga singgan ma’naviy farog‘at izidan yuruvchi tavakkul ahli axloqini o‘quvchiga ibrat qiladi. Hikoyatda tavakkul ahlining Alloh roziqligiga ishonchi barqaror bo‘lib, bu borada zarracha shaklanish e’tiqodni susaytirishi chuqur asoslab berilgan.

Hikoya mantig‘idan tasavvuf ta’limoti va so‘fiylar shaxsiyatiga xos quyidagi qo‘shma mulohazalar kelib chiqadi:

1. Moddiy ehtiyojlar uchun asralgan, zaxira saqlangan eng kichik narsa ham solik bilan Haq o‘rtasida to‘siq hisoblanadi;
2. Tavakkul hech qanday vositasiz, sabablarning sababchisiga, ya’ni Allohga itoat qilmoqdir;
3. Azal kotibi yozgan qismatning qudratli qo‘li oldida har qanday mato yaroqsiz. Qazo mash’alining shu’lasi qarshisida vosita uchquni so‘niq.

Matnshunoslik nuqtayi nazaridan Ibrohim Rabotiyga bag‘ishlangan firqada “Nasoyim ul-muhabbat”ning ikki nashri orasida jiddiy farq yo‘q. Faqat egalik qo‘shimchasining ishlatilishida “Mukammal asarlar to‘plami”ning 17-jildidagi “Nasoyim ul-muhabbat” matnida juz’iy

nuqsonlar bor bo‘lib, ular “To‘la asarlar to‘plami”da tuzatilgan: “Pir andin so‘rdikim”(41) – “Piri andin so‘rdikim”(115); “jins”(41) – “jinsi”(115) kabi.

Yuqorida “Nasoyim ul-muhabbat”dan ko‘chirilgan iqtibosda “karh yuzidin va muntazir erdikim” ifodasi bor. “Karh” kalimasiga “Navoiy asarlari lug‘ati”da so‘zning asli arabcha ekanligi qayd qilinib, “yoqimsizlik” ma’nosini ifodalashi ko‘rsatilgan va ulug‘ adibning “Vaqfiya” asaridan misol keltirilgan:[14]

“Yana dag‘i mashaqqatlar borkim, aytilsa so‘z rishtasi uzolg‘ay va mujibi karh va malomat bo‘lg‘ay!” “Vaqfiya”dan keltirilgan mazkur misolda “karh” so‘zining ma’nosi matn mazmuniga to‘la mos keladi. “Nasoyim ul-muhabbat”da esa muridga nisbat berilgan bu so‘z matn mazmuniga uyg‘un emas. U 29-fiqraning “To‘la asarlar to‘plami”dagi matnida “karih” so‘zi bilan almashtirilgan. “Karih” kalimasi to‘rt tomlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” 2-jildida “chirkin, xunuk, yoqimsiz, jirkanch” ma’nolarini anglatishi aytilib, “Farhod va Shirin” va “Mahbub ul-qulub” asarlaridan misol berilgan. Bu o‘rinda aniq tasavvur hosil bo‘lishi uchun “Mahbub ul-qulub”dan berilgan misolni ko‘chiramiz: “Makruheki harzasi tavil va ovozi karihdur, o‘zi savti bila qurbahag‘a shabihdur”.[15] Mazkur misoldagi “karih” so‘zining matndagi ma’nosini “Nasoyim ul-muhabbat”da berilgan ifoda ichida kelgan “karih” ma’nosi bilan sinchiklab qiyoslab ko‘rsak, “To‘la asarlar to‘plami”dagi matnda kalimaning begonasirab turganligi ma’lum bo‘ladi. Bizningcha, har ikkala nashrda berilgan “karh” va “karih” so‘zlari yararli, arziydigan ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirgan “kari” – كرى[16] kalimasi bilan almashtirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki tavakkul qadami bilan Makka safariga, Haj ibodatiga chiqqan Shayx Ibrohim Sitanbah muridiga yo‘l asbobiga yaraydigan biror narsani ehtiyot yuzasidan o‘zi bilan olib chiqqan bo‘lsa, uni tashlashni buyuradi. Chunki shaxsiy ehtiyojlar uchun olib qo‘yilgan, asrab qo‘yilgan eng kichik narsa ham solik bilan Haq o‘rtasida to‘siq hisoblanib, tavakkul nodurustligidan nishon berar edi.

Xuddi shunday imloviy tafovutlar, o‘zgartirilgan va orttirilgan kalimalar Bishr Tabaroniyga bag‘ishlangan o‘ttiz to‘qqizinchi, Qosim Harbiyga bag‘ishlangan qirqinchi, Horis B. Asad Muhosibiyga atalgan qirq birinchi, Abu Hotam Attorga bag‘ishlangan qirq uchinchi, Sariy B.Mug‘allis Saqatiyga bag‘ishlangan qirq to‘rtinchi, Ali B. Abdulhamid G‘azoiriyga bag‘ishlangan qirq beshinchi, Ahmad Huzravayx Balxiyga bag‘ishlangan qirq yettinchi fiqralarda ham bor. Masalan, 45-maqoladan “ajoyib ahvolni va yuksak darajasi bo‘lib”, Abdal (avliyo)lardan hisoblangan, qadimiy mashoyixlardan Ali.B.Abdulhamid G‘azoiriy r.t haqida o‘qiymiz:

Ul (Ali B. Abdulhamid G‘azoiriy) debdurkim, Sariy q.s. eshigin qoqtim, eshitdimkim, der erdi: Allohim, kimki meni sendin chalg‘itsa, uni mendan chalg‘itib, o‘zingga mashg‘ul qilib qo‘y. Aning bu duosining barakatidin Haq s.t manga qirq ayoq haj nasib qildi “(47). Ostiga chizib ko‘rsatilgan kalima “To‘la asarlar to‘plami” da “Ayoq “so‘zi bilan almashtirilgan (121). “Kosa, piyola, qadah “ma’nolarini anglatuvchi[17] “ayoq” yoki “ayog‘” so‘zidan ko‘ra, “ayoq” (“piyoda”) so‘zi har jihatdan “Nasoyim ul-muhabbat”ning 45-fiqrasidan ko‘chirilgan iqtibos mohiyatiga mos tushadi.

[14] Navoiy asarlari lug’ati.-Toshkent:Adabiyot va san’at ,1973.-B.306.
[15] Navoiy asarlari to’la izohli lug’ati.-Toshkent:Fan,1983.-B.98.
[16] Navoiy asarlari lug’ati. – Toshkent:Adabiyot va san’at ,1973.-B.305.
[17] Navoiy asarlari lug’ati. – Toshkent:Adabiyot va san’at ,1973.-B.31.

Xulosa shuki, “Nasoyim ul-muhabbat”ning Istiqlol davrida amalga oshirilgan har ikkala nashri ham og‘ir va mashaqqatli mehnat natijasi bo‘lib, katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ammo ikkala nashr ham matniy nuqsonlardan xoli emas. Ularda ayrim imloviy xatolar, o‘zgartirilgan, orttirilgan kalimalar mavjud. Biror harfni noto‘g‘ri o‘qish tufayli so‘z ma’nosining o‘zgarib, matnga mos tushmay qolgan holatlar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Navoiy A. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriot matbaa birlshamasi. 2013.
3. Navoiy asarlari lug’ati. – Toshkent:Adabiyot va san’at ,1973
4. Navoiy asarlari to’la izohli lug’ati.-Toshkent:Fan,1983
5. Farhangi zaboni tojiki. Iborat az du jild. Jildi 2. Moskva: nashriyoti Sovetskaya ensiklopediya, 1969.
6. Rahmon V. Mumtoz so’z sehri. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2015.
7. Navoiy. A. Vaqfiya.- Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik, 14-jild.-Toshkent: Fan, 1998
8. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Qiyosiy matn. Moskva-Leningrad, 1948.
9. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri/Matn/ Tarjima va tafsir muallifi
10. : Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-Standart. 2021
11. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri/Matn/ Tarjima va tafsir muallifi : Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-Standart. 2021